

ISSN 2010-9075

БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ
МӘМЛЕКЕТЛИК УНИВЕРСИТЕТИНИҢ

ХАБАРШЫСЫ

БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИҢ

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА



4

НӨКИС 2024 НУКУС

**БЕРДАҚ атындағы ҚАРАҚАЛПАҚ МӘМЛЕКЕТЛИК
УНИВЕРСИТЕТИНИҢ**

ХАБАРШЫСЫ

**БЕРДАҚ номидаги ҚОРАҚАЛПОҚ
ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИНИҢ**

АХБОРОТНОМАСИ

ВЕСТНИК

**КАРАКАЛПАКСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО
УНИВЕРСИТЕТА им. БЕРДАХА**

№ 4 (67)

2024

Каракалпакский госуниверситет им. Бердаха

oshirish: O'qituvchilar uchun kredit tizimi doirasida o'qitish metodikasi bo'yicha kurslar va treninglar tashkil etish, shu jumladan kurslar, talabalar bilimni baholash va o'quv jarayonini boshqarish usullarini ishlab chiqish zarur.

АДАБИЁТЛАР

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-son Farmoni. www.lex.uz
2. Muxamedov Sh.M. "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kredit- modul tizimidan foydalanish metodikasini takomillashtirish". Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD). Diss. –B.: 2022 y. – 155 b.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy - metodik asoslari.: Ped. fan. dokt. ... diss. avtoref. - T.: 2007 y. – 45 b
4. Cao, H. (2004). Influence of Credit System on Ideological and Political Education of University Students and Its Countermeasures. Journal of Shihezi University.
5. LI, G. (2003). An Analysis of the Restrictive Elements to Credit System and the Recommended Countermeasures. Journal of Yangzhou University. Rasulov, I. M. (2021). Problems and solutions of teaching in credit-module system in higher education institutions. The American journal of social science and education innovations. Usmonov, B. (2020). introducing a credit recognition system for higher education institutions. 11, 809-819.
6. Yu, Z. (2016). Innovation and Exploration of Teaching Management Based on Credit System.

Kredit-modul tizimi va tizim asosida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash

Annotasiya: Maqolada kredit-modul tizimi asosida texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning takomillashtirilgan modelini tuzish uning komponentlari haqida fikr yuritiladi. Jumladan: Kredit-modul tizimiga asoslangan o'quv jarayonining takomillashtirilgan va ta'lim jarayoniga tavsiya etilayotgan modelning maqsad, tashkiliy, mazmun, natija komponentlari tizimli asosda ko'rsatib berilgan. Eng asosiysi o'qitishda kredit-modul tizimi ahamiyati batafsil bayon qilingan.

Tayanch so'zlar : innovatsiya, ta'lim tizimi, kredit-modul tizimi, oliy ta'lim, ta'lim sifati, boshqaruv jarayoni, kredit soatlari.

Подготовка студентов к профессиональной деятельности на основе кредитно-модульной системы и системы

Аннотация: В статье рассматриваются составляющие создания усовершенствованной модели подготовки студентов технологического образования к профессиональной деятельности на основе кредитно-модульной системы. В частности: на систематической основе показаны целевая, организационная, содержательная, результативная составляющие усовершенствованной и рекомендуемой модели образовательного процесса на основе кредитно-модульной системы. Самое главное, подробно объясняется важность кредитно-модульной системы в обучении.

Ключевые слова: инновации, система образования, кредитно-модульная система, высшее образование, качество образования, процесс управления, кредитные часы.

Preparing students for professional activity based on credit-module system and system

Abstract: The article discusses the components of creating an improved model of preparing students of technological education for professional activity based on the credit-module system. In particular: the goal, organizational, content, result components of the improved and recommended model of the educational process based on the credit-module system are shown on a systematic basis. Most importantly, the importance of the credit-module system in teaching is explained in detail.

Key words: innovation, educational system, credit module system, higher education, quality of education, management process, credit hours.

OLIY TA'LIMDA RAQAMLI KOMPETENSIYALARNI BAHOLASH: YOSH O'QITUVCHILAR VA TALABALAR TAJRIBASI

Atamuratov R. K.

Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

Kirish. So'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimiga axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarning jadali sur'atlarda tatbiq etilishi ta'lim tizimi sifatini oshirishning shakli va mazmunida ulkan o'zgarishlar yasamoqda. Bugungi raqamlashtirish va yuqori texnologiyalar asrida o'qitish samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va resurslar bilan bir qatorda, ta'lim oluvchilarning raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish orqali qaror qabul qilish uchun kerakli ma'lumotlarni topish qobiliyati (axborot savodxonligi), raqamli qurilmalar bilan ishlash qobiliyati (kompyuter savodxonligi), ommaviy axborot vositalarini tanqidiy o'rganish (mediasavodxonligi) hamda zamonaviy raqamli aloqa vositalaridan foydalanish (kommunikativ savodxonligi) ko'nikmalarini rivojlantirish bo'yicha bir necha muammolar hal bo'lganicha yo'q. Xususan, ta'lim oluvchilar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida ta'lim muassasalarining asosiy o'quv dasturlariga doimiy o'zgartirishlar kiritib borilishi, raqamli ta'lim resurslarining yangi avlodlarini ishlab chiqish va takomillashtirish, ta'lim samaradorligini yaxshilash bo'yicha xorijiy tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etishga doir muammolar dolzarb hisoblanadi.

Bizning tadqiqotimizning maqsadi oliy ta'lim muassasidagi yosh pedagoglar va talabalarining raqamli kompetensiyalarini qanchalik darajada baholashini o'rganish, shuningdek, ularning yangi raqamli texnologiyalarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasini aniqlashtirishdan iborat. Tadqiqot maqsadlar uchun Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti yosh o'qituvchilari va talabalar o'rtasida tadqiqotlar o'tkazildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Har yili turli sohalarida (ishlab chiqarish, tibbiyot, ta'lim va hokazolar) insonlarning turmush tarzini hamda kasbiy faoliyatini yengillashtiradigan yangi raqamli texnologiyalar yaratiladi. Raqamlashtirish

jarayonini tavsiflovchi eng muhim tushunchalardan biri bu **axborot madaniyatidir**. Axborot madaniyatining ta'rifi, talqini va tuzilishidagi farqlarga qaramay, aksariyat mualliflar uning tarkibiga ma'lum darajadagi raqamli texnologiyalar bo'yicha bilimlar, ulardan foydalanish ko'nikmalari, raqamli qadriyatlar hamda ushbu raqamli kompetensiyalardan ta'lim olish yoki kasbiy faoliyatida qo'llash bo'yicha amaliyotlarni kiritadilar.

Axborot madaniyati raqamli texnologiyalarning turli bilim va faoliyat shakllari bilan birlashishi natijasida yangi fan, madaniyat, siyosat va turli sohalarida AKTdan foydalanish modellarini yaratadi. Axborot madaniyatini o'rganishda raqamli kompetensiyalar muhim rol o'ynaydi. Ular mavjud raqamli bilimlar asosida shakllantirilib, amaliy yo'nalishda farqlanadi hamda ma'lum bir faoliyat sohasidagi muayyan muammolarni hal qilishda foydalaniladi.

2006-yilda Yevropa Ittifoqi tomonidan XXI asr uchun sakkizta zaruriy kompetensiya tavsiyalari ishlab chiqilib ularning ichidan raqamli kompetensiyalar eng asosiylaridan biri sifatida e'tirof etildi. Hozirgi avlodda axborot madaniyati va raqamli kompetensiyalarni shakllantirgan ta'lim muassasasi ta'lim oluvchilarni nafaqat kelajakdagi kasblarga, balki, raqamli dunyodagi hayotga ham tayyorlashi kerak. Binobarin, raqamli kompetensiyalarning talqini ularning kreativlik, ijodkorlikka undaydi, bu esa AKTdan foydalanishning yagona mukammal mexanizmining yo'qligini hamda turli faoliyat sohasiga qarab farqlanishini anglatadi.

Raqamli kompetentlik raqamli texnologiyalar bilan bog'liq ko'nikmalarni tavsiflovchi yangi tushunchalardan biridir. So'nggi yillarda raqamli ko'nikma va malakalarni tavsiflash uchun "AKT ko'nikmalari", "Texnologik ko'nikmalar", "IT ko'nikmalari", "XXI asr malakalari", "Axborot madaniyati", "Raqamli savodxonlik va raqamli ko'nikmalar" kabi bir qancha atamalar qo'llanilmoqda. Ushbu atamalar ko'p hollarda "Raqamli kompetensiya" va "Raqamli savodxonlik" atamalari kabi bir-birining o'rnida ishlatiladi [1]. Raqamli kompetensiyalarga axborotdan foydalanish (qidirish, tizimlashtirish, tahlil qilish), muloqot qilish (Internet, ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish), ma'lumotlar bazalari bilan ishlash va analitik dasturlardan foydalanish, shuningdek, tegishli raqamli vositalar va resurslardan foydalangan holda muammolarni hal qilish ko'nikmalari kiradi. Darhaqiqat, jamiyatning zamonaviy rivojlanish tendensiyalari, kompyuter texnologiyalarini rivojlantirish, globallashtirish va axborotlashtirish jarayoni barcha sohalariga, shu jumladan, ta'limga ham o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmadi. Deyarli kelajakdagi barcha ta'lim va ish o'rinlari ma'lum darajadagi tez o'zgaruvchan raqamli malaka va ko'nikmalarni talab qiladi.

Raqamli kompetensiya insonning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'z ishini tanqidiy, ishonchli, xavfsiz va samarali tashkil etish hamda ijobiy natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi hamda raqamli muhitda ishlay olishi va bu sohada o'z-o'zini tarbiyalashi, o'zgaruvchan raqamli dunyoga moslashishi uchun takomillashib borishi muhimligi tushuniladi [2]. Shuningdek, turli muammolarni hal qilish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyati va nostandart qarorlar qabul qila olishga tayyor bo'lish kerakligini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, raqamli kompetensiya bu - raqamli texnologiyalar rivojlanishi sharoitida shaxs faoliyatining asosiy xususiyatlaridan biridir [3]. Raqamli kompetentlik axborot va ma'lumotlar savodxonligi, aloqa, hamkorlik va raqamli muhitda xavfsizlikni o'z ichiga oladi [4]. Shuningdek, elektron resurslardan ta'lim va kasbiy maqsadlarda samarali foydalanish qobiliyati hamdir [5]. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan tasdiqlangan Raqamli O'zbekiston-2030 strategiyasining Axborot texnologiyalari sohasida ta'lim berish va malaka oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida yoshlar orasida axborot texnologiyalarini ommalashtirish, shuningdek, aholining barcha qatlamlari orasida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir.

Axborot madaniyat raqamli kompetensiyalardan tashqari umumiy kompetensiyalarni ham o'z ichiga oladi, ularni egallash zamonaviy bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida muhimdir. Umumiy kompetensiyalar jamoaviy ishlash, muloqot qilish, tanqidiy fikrlash, boshqaruvchanlik va analitik ko'nikmalarni o'z ichiga oladi. Ayrim hollarda amaliyot vaqtida yosh mutaxassislarda umumiy ko'nikmalarni yetarli darajada egallamaganligi uchrab turadi. Buning bir sababi sifatida muayyan kasblarni egallash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar to'plami doimo o'zgarib turishi, ba'zi kasblar butunlay yo'q bo'lib ketishi yoki yangilari paydo bo'lishi bilan asoslanadi. Bunday omillarni inobatga olgan holda, har qanday faoliyat sohasida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan kompetensiyalarning ahamiyati keskin oshadi. Ish beruvchilar uchun har qanday sohada qo'llaniladigan noyob ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislarni xohlashadi. Bunday kompetensiyalar mavjudligi yosh mutaxassislarga yangi sharoitlarda turli xil vazifalarni bajarishga imkon beradi.

Bizning fikrimizcha, zamon talabiga mos mutaxassislarning muvaffaqiyatli va innovatsion yondashuvining zarur ko'rsatkichlari sifatida o'ziga ishonch va ichki xotirjamlik, uzluksiz ta'lim olish, yangi ko'nikmalar va vazifalarni o'zlashtirishga bo'lgan munosabati, axborot manbalari bilan ishlash qobiliyati, ijtimoiy kompetensiyalar, maqsadga yo'nalganligi hamda ushbu kompetensiyalarga erishish uchun deyarli doimiy izlanishlarni talab etadi. Ushbu kasbiy ko'nikma va malakalar barcha sohalarida zarur bo'lganligi sababli ular har qanday bo'lajak mutaxassislarda rivojlantirilishi lozim.

Keyingi vazifamiz talabalar va yosh mutaxassislarning raqamli kompetensiyalarining modellarini tahlilini keltiradigan bo'lsak, turli manbalarda bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida ularga raqamli texnologiyalar sohasida nafaqat nazariy bilim berish, balki, amaliy ko'nikmalardan foydalanishni ham o'rgatish zarurligi ta'kidlangan. Talabalarning raqamli kompetensiyalarning modeli quyidagi ko'nikmalarni o'z ichiga oladi:

1) *Shaxsiy kompyuterdan foydalanish qobiliyati*. Ta'lim jarayonida kompyuterdan foydalanish orqali kerakli axborotlarni tez va samarali to'plash imkonini beradi;

2) *Dasturiy ta'minotlardan foydalanish qobiliyati.* Masalan, Microsoft Office dasturlar paketidan foydalanish talabalarga o'z bilimlarini boyitish va taqdim etish imkonini beradi;

3) *Axborotlarni izlash qobiliyati.* Zamonaviy talabalar ko'p hollarda o'zlariga kerakli bo'lgan turli xil axborotlarni Internet tarmog'i orqali qidirishadi. Qidirilayotgan axborotlar bosma yoki raqamli ko'rinishda bo'lishidan qa'ti nazar bu kompetensiya ta'lim jarayonini tezlashtirish bilan birga soddalashtiradi;

4) *videokonferensiya ilovalaridan foydalanish qobiliyati.* Hozirda ta'lim olish masofaviy formatga o'tganligi hamda ayrim xalqaro va amaliy konferensiyalar onlayn shaklda o'tkazilayotganligi sababli bu kompetensiya muhim sanaladi;

5) *professional dasturlar va analitik tizimlar bilan ishlash qobiliyati.* Ta'lim jarayoni umumiy kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi uchun kasbiy professional dasturlar va tahliliy tizimlarni o'rganish talabalarga kelajakdagi tanlagan kasbi bilan imkon qadar tanishish imkonini beradi.

Bunday raqamli kompetensiyalarni egallagan talabalar raqamli dunyoni bilgan holda o'z vaqtini to'g'ri taqsimlashi; yuqori sifatli materialni kafolatlaydigan manbalarni tanlashi; ta'lim jarayonida tayyor interfaol topshiriqlardan foydalanish orqali vaqtni tejash yoki o'zini yaratishi; o'quv jarayonida raqamli vositalardan samarali foydalanishi mumkin [3].

Raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy maqsadi kasbiy faoliyat jarayonini yaxshilashdir. Barcha mutaxassislardan ham bunday ko'nikmalarga ega bo'lish talab etilmaydi, chunki kasbiy faoliyatning ayrim sohalarida yangi raqamli texnologiyalardan foydalanmasligi ham mumkin. Biroq, aksariyat kasblar uchun esa juda muhim sanaladi. Endi mutaxassislar uchun kerakli raqamli kompetensiyalarni keltiramiz:

1) *shaxsiy kompyuterdan foydalanish.* Ushbu kompetensiya barcha xodimlar uchun ham, tadqiqotchilar uchun ham zarur (hisobot, yozishmalar, axborot almashish va tarqatish) hisoblanadi.

2) *dasturiy ta'minotdan foydalanish.* Bu kompetensiya kasbiy faoliyat natijalarini professional tarzda rasmiylashtirish imkonini beradi. Agar mutaxassis matn muharrirlaridan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lsa (shu jumladan yaratilgan hujjatga turli xil video, fotosuratlar va animatsiya joylashtirish qobiliyati), kompyuter grafikasi, taqdimotlar bilan ishlashni bilsa, bu uning professionalligini oshiradi va kasbiy faoliyatida samaradorlikni ta'minlaydi;

3) *muloqot va hamkorlik kompetensiyalari.* Elektron pochta va videokonferensiya ilovalaridan samarali foydalanish orqali jamoa yoki rahbariyat bilan kasbiy masalalarni masofadan turib hal qilish imkonini beradi;

4) *axborotlarni qayta ishlash va saqlash.* Bu nafaqat axborotlar bilan ishlash, balki, uni to'g'ri umumiy shaklga keltirish ham muhim sanaladi. Buning natijasida axborot barcha hamkasblar uchun tushunarli va ochiq bo'ladi. Bu kompetensiya jamoaviy tezkor ishlash imkonini beradi;

5) *professional dasturlar bilan ishlash.* Texnik tizimlarning rivojlanishi murakkab jarayonlarni soddalashtiradi, lekin mutaxassislardan chuqur o'rganishni talab qiladi. Professional dasturlardan foydalangan holda axborotlarni qidirish va tahlil qilish bilan bog'liq kompetensiya eng ko'p talab qilinadiganlardan biridir.

Tadqiqot davomida keltirilgan talabalar va mutaxassislarning raqamli kompetensiya modellarini taqqoslab, biz ularni umumiy o'xshash degan xulosaga kelishimiz mumkin. Ya'ni, mutaxassislarning raqamli kompetensiyalari bajariladigan ish sifatini oshirishga qaratilgan bo'lsa, talabalariniki esa kasbiy ko'nikmalarni egallashga qaratilgan.

Natijalar va muhokama. Qiyosiy tadqiqot doirasida 2024-yil yanvar-iyun oylarida Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti yosh o'qituvchilar (30 yoshgacha bo'lgan yosh o'qituvchilar iborat 65 nafar respondent) va talabalar (350 nafar respondent) o'rtasida so'rovlar o'tkazildi. Berilgan savollarning ba'zilari har bir guruh vakillarining raqamli kompetensiya darajalarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, yosh mutaxassislar va talabalardan o'tgan yil davomida ularning qanchalik darajada malakasi yaxshilanganligini baholash so'raldi. Bu so'rovnoma savoliga talabalar va yosh mutaxassislarning masofaviy ta'lim olishga va faoliyat yuritishga o'tish jarayoni dolzarbligi bo'yicha tayanib javob berilishi so'raldi (1-jadvalga qarang). Hisoblashning turli xatoliklardan xoli bo'lishi, shuningdek, so'rovnoma materiallarini tashkil etish, uni statistik tahlilini yuqori saviyada taqdim etish va bir turdagi hisoblash ishlarini qayta-qayta bajarishdan qochish maqsadida barcha tashkiliy-tahliliy ishlar pedagogik tadqiqotlarda eng muhim statistik paket hisoblangan SPSS statistics 27.0 dasturida amalga oshirildi.

1-jadval. 2023-yil hisobida AKT bo'yicha ko'nikmalarini oshirgan respondentlar ulushi (foizda)

AKT	Yosh o'qituvchilar	Talabalar
Shaxsiy kompyuter va smartfonlar	55,7%	81,3%
Microsoft Office dasturlari paketi (Word, Excel, Power Point va boshqalar)	43,2%	81,2%
Elektron pochta	44,2%	71,7%
Qidiruv tizimlari (Google, Yandex va boshqalar)	44,4%	68,3%
Videokonferensiya ilovalari (Zoom, Skype, Google Meet)	51,4%	83,1%
Bulutli texnologiyalar (Google Cloud, Yandex Cloud, Dropbox)	36,4%	63,0%
Professional kasbiy amaliy dasturlar va analitik tizimlar	41,2%	42,8%

Talabalar o'rtasida AKTni o'zlashtirish darajasini o'z-o'zini baholash faoliyat yuritayotgan respondentlarga qaraganda ancha yuqori. Talabalarining 80% dan ortig'i shaxsiy kompyuter, Microsoft Office dasturlari va videokonferensiya ilovalaridan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini oshirganiga ishonishadi. Bunday yuqori bo'lishiga sabab ularning o'z imkoniyatlarini yuqori baholashi (ko'pchilik hali o'z ko'nikmalarini kasbiy faoliyatda qo'llamaganligi sababli) yoki shu yo'l bilan ular ta'limning yaxshi sifatini namoyish etishlari bilan bog'lagan bo'lishlari mumkin. Shuningdek,

respondentlardan AKT bo'yicha mavjud bo'lgan ko'nikmalarini besh ballik shkala bo'yicha baholash so'raldi (2-jadval qarang).

2-jadval. Respondentlarning AKT bo'yicha malakasini o'rtacha baholash natijalari

AKT	Yosh o'qituvchilar	Talabalar
Shaxsiy kompyuter va smartfonlar	4.7	4.7
Microsoft Office dasturlari paketi (Word, Excel, Power Point va boshqalar)	4.0	4.3
Elektron pochta	4.7	4.6
Qidiruv tizimlari (Google, Yandex va boshqalar)	4.8	4.8
Videokonferensiya ilovalari (Zoom, Skype, Google Meet)	3.7	3.9
Bulutli texnologiyalar (Google Cloud, Yandex Cloud, Dropbox)	3.8	3.9
Professional kasbiy amaliy dasturlar va analitik tizimlar	3.0	2.7

Bu so'rovnomma natijalaridan ko'rinib turibdiki, talabalar va yosh mutaxassislarining AKTdan foydalanish darajasini baholashganda tafovut unchalik katta emas. Respondentlarning ikkala guruhi shaxsiy kompyuter, elektron pochta va qidiruv tizimlari bilan ishlash sifatini bir xil darajada yuqori baholadilar, shuningdek, videokonferensiya ilovalari hamda bulutli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha ko'nikmalarini biroz past darajada baholashdi. Professional dasturlar va axborot-tahliliy tizimlar bilan ishlash ko'nikmalarini yomonroq baholadilar.

Talabalarining AKT bo'yicha malakasining yosh mutaxassislarinikiga nisbatan katta tafovuti talabalarining doimiy ravishda o'z bilimlarini oshirib borishi asoslansa, yosh o'qituvchilarning malakasi bevosita mehnat faoliyati bilan bog'liq. Natijada biz ikkala guruhning ham yetarlicha yuqori darajadagi kompetensiyalari haqida gapirishimiz mumkin. Shuningdek, tadqiqot jarayonida ikkala guruhning AKTni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasi ham o'rganildi (3-jadval).

3-jadval. Respondentlarning AKTni o'zlashtirish motivatsiyasi (foizda)

Motivatsiya	Yosh o'qituvchilar	Talabalar
Qiziqish, kasbiy rivojlanish, yangi narsalarni o'rganish yoki oldinga intilish istagi	96,7%	75,9%
Samarali ishlash, ko'proq yutuqlarga erishish, murakkab vazifalarni hal qilish istagi bilan	74,4%	46,2%
Hayotini yanada qiziqarli va rang-barang qilish istagi bilan	62,0%	41,2%
Karyera qilmaslik yoki yangi texnologiyalarni bilmasdan kasb egallash	42,9%	66,3%
Kasbni o'zgartirish istagi bilan	39,2%	-
Rahbariyat buyrug'i bilan (kasbiy vazifalarni bajarish imkoniyatiga ega bo'lish uchun)	28,4%	-
Atrof-muhit, oila, qarindoshlar ta'sirida (doimo aloqada bo'lish, ijtimoiy yakkalanib qolmaslik)	17,9%	21,3%
Ish o'rmini, egallab turgan lavozimi yoki turli mukofotlar (moddiy yoki ma'naviy)ni yo'qotishdan qo'rqish	4,2%	8,1%
Boshqalar	1,7%	3,2%

Natijalardan xulosa qilishimiz mumkinki, yosh o'qituvchilar uchun raqamli innovatsiyalarni o'rganish motivatsiyasi qiziqish, kasbiy rivojlanish, yangi narsalarni o'rganish yoki oldinga intilish, samarali ishlash, ko'proq yutuqlarga erishish, murakkab vazifalarni hal qilish, hayotini yanada qiziqarli va rang-barang qilish istagi muhim sanaladi. Talabalarining texnik yangiliklarni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasi, birinchi navbatda, rivojlanishga bo'lgan qiziqish va intilish, shuningdek, bu texnologiyalar bo'yicha bilimlar kelajakda foydali bo'lishiga ishonch bilan bog'liq.

Xulosa. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, bizning fikrimizcha, barcha yosh o'qituvchilarga yangi raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishda ko'maklashish lozim. Buning natijasida, ular o'zlarining kasbiy qobiliyatlarini yanada samarali qo'llashlari va yangi jamoada kirishimli bo'lishlari, ish sifatini oshirishi va raqamli texnologiyalardan muvaffaqiyatli foydalanishga erishishlari mumkin. Talabalar uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirish ularga talab yuqori bo'lgan raqobatbardosh yetuk mutaxassislar bo'lish imkonini beradi.

Bularning barchasiga erishish uchun raqamli kompetensiyalarni rivojlantirishning yangi strategiyalar va innovatsion yondashuvlarini ishlab chiqish zarur. Yangi strategiyalar qatoriga o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish, raqamli va ijtimoiy ko'nikmalarni egallash usullari bilan integratsiyalash, muayyan soha vakillari bilan hamkorlikda dasturlar ishlab chiqish, o'qituvchilarning raqamli salohiyatini kengaytirish va raqamli ko'nikmalarni sertifikatlash hamda malaka oshirish va qayta tayyorlash markazlari faoliyatini takomillashtirish kiradi.

ADABIYOTLAR

1. Устин, П. Н., Сабирова, Э. Г., & Гарипова, И. И. (2020). Цифровые компетенции учителя как субъекта образовательной деятельности в его индивидуальной траектории развития. *Бехтерев и современная психология личности*, 216-218.
2. Гладилина И. П., Кадыров Н. Н., Строганова Е. В. Цифровая грамотность и цифровые компетенции как фактор профессионального успеха // *Инновации и инвестиции*. 2019. № 5. С. 62–64.
3. Atamuratov, R. (2023). Oliy ta'lim muassasalari talabalarida raqamli kompetensiyani rivojlantirish // *Oliy ta'limni raqamlashtirish sharoitida innovatsion o'qitish texnologiyalarini qo'llash masalalari*. Respublika ilmiy-uslubiy anjumani. –Toshkent, 183-185.
4. Zhao, Y., Gómez, M. C. S., Llorente, A. M. P., & Zhao, L. (2021). Digital Competence in Higher Education: Students' Perception and Personal Factors. *Sustainability*, 13(21), 12184. <https://doi.org/10.3390/su132112184>
5. Tsarapkina, J. M., Plahina, L. N., Konoplyuk, N. V., Vaganova, O. I., & Lapshova, A. V. (2021). The formation of bachelors' digital competencies at the university. *Propósitos Y Representaciones*, 9(SPE1). <https://doi.org/10.20511/pyr2021.v9nspe1.811>

Rezyume: Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'quv jarayonidagi va yosh o'qituvchilarning kasbiy faoliyatida talab qilinadigan raqamli kompetensiyalar borasida so'z yuritiladi. Shuningdek, talabalar va yosh o'qituvchilarning raqamli texnologiyalarni o'zlashtirish bo'yicha o'z raqamli kompetensiyalarini qanday baholayotgani va yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyasi darajalari o'rganildi. Hisoblashning turli xatoliklardan xoli bo'lishi, so'rovnomma materiallarini tashkil etish va olingan natijalarning statistik tahlilini yuqori saviyada tashkil etish maqsadida SPSS 27.0 dasturidan foydalanildi.

Tayanch so'zlar: Oliy ta'lim, axborot madaniyati, raqamli texnologiyalar, raqamli kompetensiyalar, raqamli kompetensiyalar modeli.

Резюме: В этой статье рассматриваются цифровые компетенции, необходимые в образовательном процессе студентов высших учебных заведений и в профессиональной деятельности молодых преподавателей. Статья далее подробно рассматривает, как студенты и молодые преподаватели оценивают свою цифровую компетентность в освоении цифровых технологий и уровни их мотивации к освоению новых информационных технологий. Для того чтобы расчеты были свободны от различных ошибок, материалы анкет были организованы, а статистический анализ полученных результатов был проведен на высоком уровне, использовалась программа SPSS 27.0.

Ключевые слова: Высшее образование, цифровая культура, цифровые технологии, цифровые компетенции, модель цифровых компетенций.

Summary: This article discusses the digital competencies required in the educational process of students of higher education institutions and in the professional activities of young teachers. The article further elaborates on how students and young teachers evaluate their digital competence in mastering digital technologies and the levels of their motivation to master new information technologies. The SPSS 27.0 program was used in order to make the calculation free of various errors, to organize the questionnaire materials and to organize the statistical analysis of the obtained results at a high level.

Key words: Higher education, digital culture, digital technology, digital competence, model digital competence.

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA YO'NALISHIDA IXTISOSLIK MODULLARI MAZMUNIDA INTEGRATSIYANING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Saypillayeva H. B.

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Integratsiya to'laqonli ilmiy tushuncha sifatida pedagogikada 80-yillarning birinchi yarmida ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, axborot, madaniy va boshqa sohalarida jadal rivojlanayotgan o'zaro bog'liq jarayonlar fonida paydo bo'ldi. Bu vaqtga kelib u falsafiy va ilmiy adabiyotda allaqachon mustahkam o'rin olgan edi. Shunga qaramay, fanimizda integratsiya o'qituvchilarning zamonaviy zamon bilan hamnafas bo'lish istagi tufayli kontseptsiyani ilmiy faoliyatning boshqa sohalaridan oddiygina ko'chirish natijasida vujudga keldi, deb taxmin qilish noto'g'ri bo'ladi.

Integratsiya muammosi na faylasuflar, na metodistlar, na siyosatchilar jiddiy qiziqmagan paytda ham o'qituvchilar tomonidan faol muhokama qilindi. Pedagogikadagi bu kategoriya ilmiy ongning murakkab dialektik o'zgarishlar mahsuli bo'lib, u ba'zi opportunistik intilishlarga bo'ysunmaydi. Ammo u jahon madaniyati yutuqlarini va ba'zan mahalliy ta'limni rivojlantirishning dramatik tajribasini o'zlashtirdi.

Yigirmanchi asr ta'limida integratsiya tarixi, albatta, uchta sifat jihatidan farq qiladigan bosqichlarga tuzilgan[2.73]:

- asr boshi – 20-yillar – fanlararo asosda muammoli va kompleks ta'lim (mehnat maktabi);
- 50-70-yillar - fanlararo aloqalar;
- 80-90 yil - haqiqiy integratsiya.

Ta'lim tizimini muammoli-kompleks, yaxlit asosda yaratishga birinchi amaliy urinishlar asr boshlarida AQSHda J.Dyui, 20-yillarda Sovet Rossiyasida S.T.Shatskiy, M.M.Rubinshteyn va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan. Bu yangi mamlakatimizda qabul qilingan yo'nalish, mehnat maktabi nomi bilan pedagogika tarixiga kirgan tajriba uchun mumkin bo'lgan amaliy amalga oshirishning barcha to'liqligi. Unda o'quv jarayonini tashkil etishning asosiy printsiplari "hayot komplekslari usuli" edi. Integratsiyalashgan usul (yoki loyiha usuli) ma'lum bir umumiy muammo atrofida turli mavzulardagi bilimlarni birlashtirishni o'z ichiga oladi. Bu o'quv jarayonini fanlararo asosda tashkil etishning birinchi amaliy tajribasi edi.

1931-yilda bu katta tajriba yopildi va qattiq tanqidga uchradi. Mehnat maktabida ta'lim mazmunini tashkil etishning yangi tamoyili amalga oshirildi. An'anaga ko'ra, sub'ekt-sentriзм shunday harakat qildi: bilimlar har biri u yoki bu didaktik qayta ishlangan fan sohasini ifodalovchi sub'ektlarga tizimlashtirildi. Integratsiyalashgan ta'lim muayyan muammolar atrofida ko'p tarmoqli bilimlarni birlashtirishni va qat'iy qarama-qarshi bo'lgan sub'ekt-sentriзмni o'z ichiga oladi. O'sha yillardagi inqilobiy ruhdagi "eski" ta'limning kamchiliklarini tanqid qilish uning tubdan inkor etilishiga olib keldi. Yangi maktab mafkurachilarining e'tiqodiga ko'ra, "eski emas, yangisi bilan to'ldirilishi kerak, balki pedagogik hayotda saqlanib qolgan narsa tabiiy ravishda yangi tuzilishga kiritiladi". Fanlararo integratsiyaning amalida isbotlangan muvaffaqiyatsizligi aslida eski va yangi maktablarni, predmet-sentriзм va murakkablikni (fanlararo integratsiya) aniq qarama-qarshi qo'yan pedagogik tafakkurning inqilobiy uslubining hayotiy emasligining ifodasi edi.

1958-yilda "Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va SSSR xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" qonun qabul qilindi. Shu vaqtdan boshlab integratsiyaning yangi bosqichi - fanlararo aloqalar bosqichi boshlanadi. 50 – 60-yillarda ular asosan fan va kasbiy bilimlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash nuqtai nazaridan